


# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST  
№55

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
10-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-10**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 55-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

<b>1. Эргашев Икром Абдурасулович</b> ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ.....	7
<b>2. Akramova Muhlisa</b> O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA‘LIMNING KAFOLATLANISHI.....	9
<b>3. Xodjaniyazov Sardor Umarovich, Sharipova Fazilat Ollaberganovna</b> BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA MAXSUS KOMPETENTLARNI SHAKLLANTIRISHGA METODIK YONDOSHUVLAR. ....	11
<b>4. Sarvinoz Sanaqulova</b> MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASASIDA TA‘LIM MUHITINI YARATISH .....	13



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ

Эргашев Икром Абдурасулович,  
Тошкент давлат юридик университети

**Аннотация:** ушбу мақолада олий таълим сифатини бошқаришнинг замонавий шарт-шароитларига доир илмий-назарий адабиётлар, тегишли статистик маълумотлар ва бошқа амалиёт материалларини ўрганиш ҳамда таҳлил қилиш орқали ҳал қилиш муҳим эканлиги таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** олий таълим, олий ўқув юртлари, Олий таълим муассасалари, таълим сифати.

Хорижий ривожланган мамлакатларда олий таълим тизимини ривожлантириш икки хусусиятга марказий бошқарувга ва олий ўқув юртларида мутахассислар тайёрлашни бозор муносабатлари талабларидан келиб чиркан холда уларни диверсификациялаштиришга асосланади.

Марказлаштирилган холда олий ўқув юртларини бошқаришни амалга оширилишининг сабаби олий таълимни ҳар бир мамлакат миллий иктисодиётини ракобатбардошлигини жаҳон бозориди таъминлашдан иборат.

Шу билан бирга олий таълим тизимини бозор муносабатлари шароитида марказдан бошқариш зарурлиги шундан иборатки уларда асосан олий таълим давлат бюджети хисобидан молиялаштирилганлиги сабабли бу маблағлардан фойдаланишни назорат қилишни зарурлигидир.

Олий таълимни марказлаштирилган холда бошқаруви хорижий мамлакатларнинг умуммиллий сиёсатларидан келиб чиққан холда олий ўқув юртларининг стратегиялар ишлаб чиқилад ва зарур бўлган йўналишлар буйича кадрларни тайёрлаш зарурлигидан келиб чиққан холда уларни кўшимча равишда молиялаштирилади.

Минтақавий бошқарув ташкилотлари олий таълим тизимини ривожлантириш режаларини шу минтақа ривожланиш режаларига қўшадилад. Ҳар бир мамлакат олий таълим тизимини ривожлантириш сиёсати шу мамлакат сиёсатига боғлиқ.

Жумладан Англия давлатининг олий таълим тизимини ривожлантириш сиёсати асосан университет ва олий ўқув юртларида давлат томонидан молиялаштиришқамайтириб боришга ва бошқа нодавлат субъектларидан пул тушумини оширишга қаратилган бўлиб, университет ва олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларини меҳнатларига ҳақ тўлашда уларнинг илмий фаолиятларига қараб фарқланишига асосланади.

Германияда хорижий мамлакатлар талабаларини жалб этишда Германиянинг академик алмашув агентлиги ва Гетё DAAD институтини амалга оширади. Германиянинг академик алмашув хизмати 1925 йилда ташкил топиб Германия олий ўқув юртларини ўзини-ўзи бошқарувини ташкил этади. Бу ташкилот хорижий талабаларга ва ўзининг талабаларига стипендия бериш Германия олий ўқув юртларини интернационализацияланишига ёрдам бериш немис тилини қўллаб-қувватлаш ва таълим тизимида ривожланаётган мамлакатлар билан ҳамкорлик қилишдан иборат. Бу ташкилот ўзининг мақсадини амалга оширишда турли 200 дастур асосида амалга оширади.

Жаҳонда таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш, кафолатлаш ва назоратнинг учта асосий модели мавжуд бўлиб, улар - сифатни баҳолаш тизими, аккредитациялаш тизими, сифат аудити тизимидир. Шу билан бирга, таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш баҳолаш ва назоратининг жаҳон тажрибаси таҳлили шуни кўрсатадики, барча қўлланилаётган



моделлар шартли равишда икки гуруҳга бўлиниб, улар мажбурий равишда қўлланиладиган олий таълим муассасалари аккредитацияси моделлари ва ўз ихтиёри асосида қўлланиладиган таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш баҳолаш моделларидир.

Таълим сифатини таъминлаш жараёнида талабаларнинг иштирокини жадаллаштириш бўйича ҳам қуйидагиларга эътибор бериш мақсадга мувофиқдир:

1. Мустақил талабалар уюшмасини ташкил этиш.
2. Талабаларга кўрсатилаётган сервис хизматларини тубдан яхшилаш.
3. Талабаларни ижтимоий муҳофаза қилиш мақсадида тегишли корхона, ташкилотлар билан ҳамкорлик шартномаларини тузиш.
4. Таълим сифати, ўқитиш жараёни бўйича ҳар қандай фикр эътиборга олинishi, керак бўлса рағбатлантириши лозим.

Ўқув йили якунида битирувчи талабаларнинг ҳолисона фикр-мулоҳазаларини олиш орқали янги ўқув йили таълим сифатини яхшилаш бўйича тегишли кўрсатмалар ишлаб чиқиш.

Ўзбекистонда мустақиллик йилларида таълим сифатини таъминлаш, бошқариш ва назорат қилиш юзасидан яратилган, амалиётга татбиқ этилган меъёрий–ҳуқуқий ҳужжатлар, жумладан, Президент Фармонлари, Қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги буйруқлари, тасдиқланган Низомларни ўрганиш ва таҳлил қилиш жараёнида таълим рақобатбардошлиги даражасини кўтариш учун ҳар бир олий таълим муассасаси ўзининг сифатни назорат қилишдаги ички имкониятларини янада кенгроқ ишга солиши лозимлиги бўйича хулосага келинди. Чунки ҳар бир олий таълим муассасасида тайёрланаётган кадрларнинг меҳнат бозорида рақобатбардошлиги бевосита таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш назорат қилиш билан бевосита боғлиқдир.

Олий таълим муассасасида таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш олий таълим муассасасига инновацион муҳитни жорий этишга йўналтирилгандир. Бунга асос рақобатбардошлигида сифатни назорат қилиш гуруҳлари фаолияти объектлари доимий ўрганилиши, назорат қилиниши ва таҳлил қилинишини кўрсатиш мумкин.

Олий таълим муассасаларида таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш назорат қилиш тўғри йўлга қўйилиб, сифат самарадорлигига эришилган тақдирда битирувчиларга истеъмолчилардан олдиндан таклиф тушиб, битирувчилар бандлигини таъминлашга эришилади.

Глобаллашув шароитида олий таълим муассасаларида таълим сифатини таъминлаш ва бошқариш тизимининг ишлаш тамойили даврийлик ва узвийликка асосланганлиги учун олий таълим муассасасининг таълим сифатини таъминлаш ва бошқаришда халқаро интеграция ва жаҳон тажрибасини ўрганиш муҳим омиллардан бири бўлиб хизмат қилиши шубҳасиздир.





## О‘ЗБЕКИСТОНДА ИНКЛЮЗИВ ТА’ЛИМNING КАФОЛАТLANISHI

**Akramova Muhlisa**

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU

Pedagogika psixologiya fakulteti

Surpedagogika yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalarni oddiy sinflarda o‘qitish va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish borasida olib borilayotgan ishlar haqida fikr yuritildi. Shuningdek alohida ehtiyojli bolalarning sog‘lom bolalar bilan birga o‘qitilishining ijobiy natijalari ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta‘lim, alohida ehtiyojli bolalar, UNICEF, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar

Inklyuziv ta‘lim - bu endilikda rivojlanayotgan, xalqaro standartlarga muvofiq ommalashayotgan ta‘lim turi bo‘lib, bu ta‘limning mohiyati imkoniyati cheklangan, ko‘rish, eshitish, harakatlanishda nuqsoni bor bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta‘lim olishini ta‘minlaydi. Bu ta‘lim turi ijtimoiy tenglikni barqarorlashtirib, nuqsoni bo‘lsa-da, yoshlarni ta‘lim olishdagi huquqlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. “Inklyuziv ta‘lim” atamasi fransuzcha „inclusif“ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi”-deb, tarjima qilinadi hamda maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya‘ni sog‘ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta‘limini anglatadi.

Inklyuziv ta‘lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta‘lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta‘lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta‘lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Bugungi kunda yurtimizda jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan 21 230 nafardan ziyod bola uchun respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, yengil darajadagi nogironligi bo‘lgan 18 000 nafarga yaqin o‘quvchilar maktablarda sog‘lom bolalar bilan birgalikda o‘qishmoqda.

Mamlakatimiz aholisi soni yildan yilga ko‘payayotgan bir paytda, afsuski, nogironligi bo‘lgan bolalarning soni ham ortib bormoqda. Ular ham sog‘lom bolalar kabi ta‘lim olish huquqiga ega. Buning uchun nogironligi bo‘lgan bolalarga zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Jumladan, brayl yozuvidagi darsliklar, surdo tarjimon o‘qituvchilar bo‘lishi shart. Yurtimizda bunday bolalar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi va yengil darajadagi nogironligi bor bolalar sog‘lom bolalar bilan birgalikda o‘qishi ta‘minlanishi zarur.

Bu borada eng quvonarlisi shundaki, O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning 20-moddasida inklyuziv ta‘limga doir norma kiritilgan. Shuningdek yangi konstitutsiyamizning 50-moddasida ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiyani ta‘minlanishining belgilanishi ham bu toifadagi bolalarni ta‘lim olish huquqlarini yanada mustahkamlaydi. Bu o‘z navbatida mamlakatimizda inson huquq va erkinlarini ro‘yobga chiqarilishining huquqiy kafolatlanishidan dalolat beradi.

UNICEF xalqaro tashkiloti ham inklyuziv ta‘limni qo‘llab-quvvatlaydi hamda mamlakatimizda ta‘lim tizimiga inklyuziv ta‘limning kiritishi yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

O‘zbekistondagi inklyuziv ta‘lim tadqiqotchisi, Yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktoranti Galina Nam “Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, umumiy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olish ustuvor bo‘lishi kerak”ligini aytgan. Shuningdek u o‘z fikrida “Bu barcha davlat ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarining bir vaqtda yopilishini anglatmaydi, lekin bolalarning bu kabi maskanlarda va uyda o‘qishiga faqatgina alohida holatlarda rozilik berishimiz zarur. Ta‘lim muassasasini tanlash huquqi bolalarning o‘zida va ularning ota-onasida, qonuniy vakillarida qolishi kerak”- deya, ta‘kidlaydi. Demak, inklyuziv ta‘limning ta‘minlanishi maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o‘z oilasi, mahallasi va qarindosh-



urug‘lari davrasida bo‘lishga imkon beradi.

Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo‘lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to‘sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo‘lgan bola diydasi qattiq bo‘lib o‘sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta‘lim-ta‘lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta‘lim muassasalariga qabul qilinishi o‘quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko‘proq o‘quvchilarni qamraydigan yangi o‘qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Buning nafi esa hamma bolaga tegadi. Inklyuziv ta‘lim kamsitishlarni oldini olishga yordam beradi. Jamiyatda nogironlarga nisbatan yangilash fikr va munosabat juda yuqoridadir. Ular haqida ma‘lumotlarning kamligi va ularni yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta‘lim-tarbiya berilishi bunga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday munosabatni yo‘qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma‘lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o‘xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta‘lim- tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni nogironlarga nisbatan o‘zlari singari bola ekanliklarni anglab, kamsitmasliklarini ta‘minlagan bo‘lar edi.

Bugungi kunda eng dolzarb bo‘lgan muammolardan biri yani ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog‘liq muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir. Mamlakatimizda barcha sohalarida bo‘lgani kabi, bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohotlar va o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Inklyuziv ta‘limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta‘limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta‘minlashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta‘limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo‘lgan bolalardan “nogiron” degan tamg‘ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlilikni ta‘minlash, jamiyatga to‘laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta‘minlash maqsadida umumta‘lim tizimida o‘qitishdan iborat.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. “O‘zbekiston”, 2023.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun. 2020-yil 23-sentyabr.
- 3.Muzaffarova X.N., Tangirova D. Inklyuziv ta‘lim. library.samdukf olin.uz.
- 4.Inklyuziv ta‘lim. <https://www.unicef.org>.
- 5.Akramova M. Koxlear implantatsiya. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta‘lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar. T.2023.
- 6.Akramova M. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni didaktik o‘yinlar vositasida rivojlantirish. Yangi O‘zbekiston: Innovatsiya fan va ta‘lim. Respublika 55-ko‘p tarmoqli ilmiy konfrensiya. T. 2023.



**BO`LAJAK BIOLOGIYA FANI O`QITUVCHILARIDA MAXSUS KOMPETENTLARNI SHAKLLANTIRISHGA METODIK YONDOSHUVLAR.**

**Xodjaniyazov Sardor Umarovich**

UrDU o`quv ishlar prorektori  
p.f.d., dots.

E-mail: sardor@.urdu.uz

**Sharipova Fazilat Ollaberganovna**

UrDU mustaqil izlanuvchisi

Tel.(90) 079 38 88

E-mail: sharipova.fazilat83

**Annotatsiy:** Ushbu ta'lim paradigmasining o'zgarishi munosabati bilan biologiya o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini yangi uslubiy metodlar yordamida oshirish muammosi ko'rib chiqiladi. Shuningdek maqolada o'qituvchi faoliyatining ma'lum bir fan sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus kompetentsiyalarning ta'rifi berilgan, maxsus vakolatlarni shakllantirishga uslubiy yondashuvlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak biologiya fani o'qituvchisi, ta'lim, tarbiya, kompetensiya, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlar, ilg'or tajriba.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'yektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror topedagogik texnologiyairishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur [4].

Ta'lim jarayonidagi har qanday o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy shaxs o'qituvchidir.

Zamonaviy o'qituvchi - professional o'qituvchi, u hamma narsaga ochiq, muvaffaqiyatli o'qituvchi bo'lib, bunday o'qituvchining kasbiy faoliyatining muvaffaqiyati uning kasbiy uslubiy mahoratining shakllanishi bilan belgilanadi, shuning uchun bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari bilim, malaka va ko'nikmalari to'liq shakllangan bo'lishi kerak.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi muammolarini psixologik-pedagogik tadqiq qilish ko'p qirrali bo'lib, ularni tahlil qilishda turli xil yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu zamonaviy sharoitda kasbiy ta'lim jarayoni mavjud ilmiy tajribani qayta ko'rib chiqishni va ta'lim paradigmasining o'zgarishi tufayli yangi pedagogik g'oyalar va boshqa uslubiy pozitsiyalarni ishlab chiqishni talab qilishini anglab etdi. Shu munosabat bilan biologiya o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini oshirish muammosi dolzarb bo'lib, zamonaviy ilmiy fikrning ustuvor yo'nalishlari qatorida alohida ajralib turadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifalari belgilab berilgan. Bu ta'lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [1].

O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga



yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [2].

O'qituvchi o'zini egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkilotishi mumkin. Zotan uni kasbiy bilimdonlik, halollik, rostguylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi [3].

Bundan xulosa shuki biologiya fani va undagi mavzularni yoritish jarayoni avvalo talaba yuqori darajali bilim olishi va yuqori kasbiy kompetentligini shakillantirishga qaratish ularning kelgusida yuqori salohiyatli va raqobat bardosh kadrlar bo'lib yetishishlariga yordam beradi. Bu esa, jamiyatni rivojlantirishga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash birinchi navbatda kelgusida ham ta'lim va tarbiya beradigan dargohidan ilmiy, salohiyatli yoshlar yetishib chiqishini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barakaeovich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24.

2. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 1(02), 132-137.

3. Barakayevich Q. S. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari *VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723.*

4. Niyozov Q. (2017). Biologiya fani pedagogik texnologiyalar, O'quv uslubiy qo'llanma.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАСИДА ТА’ЛИМ МУИТИНИ ЯРАТИШ

Sarvinoz Sanaqulova

Samarqand viloyati

Pastdarg'om tumani Maktabgacha va maktab  
ta'limi bo'limiga qarashli 3-son DMTT uslubchisi

**Annotatsiya** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish davlat talablari asosida amalga oshirilishi to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tizim, shaxs, konsepsiya, rivojlantirish, maqsad, vazifa, tarbiya, jarayon.

**Аннотация** В данной статье представлена информация об организации развивающей среды в ДОУ. Создание развивающей образовательной среды осуществляется на основе требований государства.

**Ключевые слова:** образование, система, личность, понятие, развитие, цель, задача, воспитание, процесс.

**Annotation** this article provides information on the organization of a developing environment in a preschool educational institution. The creation of a developing educational environment is carried out on the basis of state requirements.

**Keywords:** education, system, person, Concept, Development, Goal, task, upbringing, process.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jisimiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning so'nggi yillarda ta'lim sohasidagi eng muhim yutug'i, shubhasiz, maktabgacha ta'limning sifat jihatidan yangi tizimini yaratishdir. PF-79-son 26.05. 2023. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida”gi PF-14-son Farmoni njrosini ta'minlash maqsadida dastur ishlab chiqdi. Samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiytexnika bazasini mustahkamlash maqsadida vakolatli davlat organi – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi. Agar 2016 yilda respublikada 5211 ta bolalar bog'chasi bo'lgan bo'lsa, hozirda ularning soni 19316 taga etdi, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 62 foizni, 6 yoshli bolalar o'rtasida esa – 77 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimizda qamrov doirasi past bo'lgan joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish choralari ko'rilmog'da. Xususan, 2021-2022 yillarda qamrov doirasi kam bo'lgan hududlarda 68775 nafar bolalar sig'imiga ega 2150 ta bolalar bog'chalarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat



turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuni:

- maktabgacha ta'lim muassasasining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy tarixiy qadriyatlar: milliy va hududiy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim.

- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirishi, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan etuk va ma'naviy jihatdan shakllangan etib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda albatta zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo'shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Shulardan kelib chiqqan holda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida ushbu Davlat talablari yaratildi. Yaratilgan Davlat talablari ko'p jihatdan mavjud bo'lgan Davlat talablaridan keskin farq qiladi. Birinchidan, yangi turdagi Davlat talablarining vazifalari takomillashtirilgan. Ikkinchidan, soha va kichik sohalarda farq bor. Uchinchidan, Davlat talablari sohava kichik soha indikatorlariga o'zgartirishlar kiritilgan. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini belgilab beradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlaridan pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda "Men" konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Sohalar kichik sohalarga bo'lingan va shu bilan birgalikda, ular bolaning meyorda rivojlanish ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Davlat talablari (ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari) bu–kichik yoshdagi bolalar rivojlanishining milliy tamoyillarini, tug'ilganidan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari mezonlarini aks ettiruvchi, kattalarga ularning o'sishlari dinamikasini, rivojlanishlari holatini aniqlashda yordam beruvchi hujjatdir.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va etuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-79-son 26.05. 2023. "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori.

2. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: 2006.

3. Иващенко Е.В. Профессиональная подготовка будущего учителя начальной школы к



оценке учебных достижений младших школьников //Начальная школа/. – 2007. № 11.

4. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o’qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). T.: Iste’dod, 2010.

5. L.R.Mirjalolova va boshqalar Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar moduli bo’yicha O’quv-uslubiy majmua T.: 2017

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2023

**Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000